

O‘rta Osiyoning qadimgi tarixiga oid manbalar

(Eng qadimgi davrdan milodiy V asrgacha)

Ortiqov Ahad

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining tarix yo’nalishi talabasi

Annotatsiya: O‘rta Osiyo va Eron xalqlarining tarixiga oid eng qadimgi yozma manba – bu zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"dir. O‘rta Osiyo qadimgi jamiyatining xo‘jalik hayoti, ijtimoiy munosabatlari va mafkurasini o‘rganishda "Avesto" ma’lumotlaridan keng foydalaniladi. Ilmiy adabiyotlarda "Avesto"ning vujudga kelishi davri xususida turli nuqtai nazarlar uchraydi. Aksaiyat olimlar uning matnlari bir necha asr davomida, ya’ni mil. avv. VII asrdan to milodiy IV asrgacha, asta-sekinlik bilan shakllanib borgan, deb hisoblaydilar.

Kalit so‘zlar: "Avesto", qadimgi epigrafik yodgorliklar, Behustun yozuvi, "Avesto" so‘zining ma’nosi haqida turli farazlar uchraydi. Ko‘p eronshunos olimlar bu atama o‘rta eron (pahlaviy) tilidagi "apastak" (keyinroq – "avastay") so‘zidan olingan bo‘lib, "asos, poydevor" degan ma’noni anglatadi, deb hisoblaydilar.¹ Boshqa tilshunoslarning fikricha, bu so‘z "amr, qoida" deb tarjima qilinadi. "Avesto" qayerda vujudga kelgan, degan savolga ham yagona javob yo‘q. Sosoniylar va ulardan keyingi an'anaga ko‘ra, zardushtiylik ta’limotining asoschisi Zardusht Antropatena (Ozarbayjon) dan bo‘lgan. Beruniy ham o‘zining "Osor ul-boqiya" ("O‘tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar") nomli kitobida Zardusht Ozarbayjonda, Safid Tuman ismli odamning oilasida to‘g‘ilgan, deb

¹ Авеста: Избранные гимны / Перевод с авестийского и комментарии

yozadi.² "Avesto"dagi zardushtiy ilohlar sharafiga bitilgan madhiyalar (yashtlar) la bu kitob, darhaqiqat, O'rta Osiyoda vujudga kelgan, deyishga asos bo'ladi. Masalan, iloh Mitraga bag'ishlangan alqovda Zardusht tug'ilgan yurting maftunkor tavsifi berilgan. Bu shunday diyorki, deyiladi "Avesto"da, "u yerda dovyurak hukmdorlar jangga otlanadi; baland, xilvat, seryaylovlar tog'larda chorva miriqib o'tlaydi; chuqur ko'llarda baland to'lqinlar ko'tariladi va kemalar qatnayotgan keng daryolar oqimi Porutdagi Ishkat, Xareyvadagi Marv, Gava, So'g'diyonaga, yoki Xorazmga qarab oqadi"³ Xullas, Zardushtning vatani bo'lgan diyor tavsifi va nomlari tilga olingan jug'rofiy joylar O'rta Osiyoga to'g'ri keladi. Bizgacha yetib kelgan «Avesto» 4 qismdan iborat:⁴ Yasna ("qurbanlik", "ibodat") – asosiy marosimlar paytida o'qiladigan matnlar; Yasht ("e'zoz", "alqov") – zardushtiy ilohlar sha'niga aytildigan maqtovlar; Videvdat ("devlar [jinlar] ga qarshi qonunlar") – marosimlar paytida pokizalikni saqlashga oid ko'rsatmalar (bu qism keyinchalik noaniqroq tarzda Vendidod deb atalgan); Visprat ("barcha hukmdorlar") – duolar va katta ibodat paytida o'qiladigan matnlar to'plami (keyingi noaniqroq nomi – Vispered). Bundan tashqari, "Avesto" tarkibiga hajman katta bo'limgan boshqa bo'limlar ham kiradi. O'rta Osiyoning qadimgi tarixiga oid manbalar qatoriga qadimgi eron epigrafik

² Авесто: Яшт китоби / М.Исҳоқов тарж. – Т.: Шарқ, 2001.

.

³ 3. Авесто / Аскар Махкам тарж. – Т.: Шарқ, 2001.

⁴. Аскаров А. Ўзбекистон тарихи: Энг қадимги даврлардан эрамизнинг V асригача. – Т.: Ўқитувчи, 1994.

yodgorliklari kiradi.⁵ Ular orasida qoyatosh yozuvlari va mixxatlar alohida o‘rin tutadi. Eng mashhur epigrafik yodgorlik Behustun yozuvidir. Bu yozuv Zagros tog‘larida, Kirmoshoh shahridan 30 km janubroqda joylashgan. Behustun yozuvi fors podshosi Doro I (mil. avv. 522-486-yillar) ning farmoniga ko‘ra uch tilda – elam, bobil va qadimgi fors tillarida bitilgan. Uning uzunligi 22 metr, balandligi esa 7,8 metrni tashkil etadi. Behustun yozuvi shu bilan diqqatga sazovorki, unda Ahamoniylar sultanati tarkibiga kirgan mamlakatlar sanab o‘tilgan. Ularning qatorida O‘rta Osiyoning asosiy viloyatlari ham tilga olingan. Behustun yozuvida O‘rta Osiyo xalqlarining Ahamoniylar hukmronligiga qarshi ozodlik kurashi to‘g‘risida ma’lumotlar bor.

Xulosa: Shunday qilib, "Avesto", epigrafik yodgorliklar, antik va qadimgi xitoy manbalarida keltirilgan ma’lumotlardan, hujjatli manbalar va arxeologik tadqiqotlar natijalaridan mushtarak tarzda foydalanish O‘rta Osiyo xalqlari qadimgi tarixining keng manzarasini yaratish imkoniyatini beradi.

Manbalar, adabiyotlar va elektron resurslar

1. Авеста: Избранные гимны / Перевод с авестийского и комментарии И.Стеблин-Каменского. – Душанбе: Адиб, 1990.
2. Авесто: Яшт китоби / М.Исҳоқов тарж. – Т.: Шарқ, 2001.
3. Авесто / Асқар Маҳкам тарж. – Т.: Шарқ, 2001.
4. Асқаров А. Ўзбекистон тарихи: Энг қадимги даврлардан эрамизнинг V асригача. – Т.: Ўқитувчи, 1994.

⁵ 5. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари (қадимги замон ва ўрта асрлар). – Т.: Ўқитувчи, 2001

5. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари (қадимги замон ва ўрта асрлар). – Т.: Ўқитувчи, 2001.